

AMIR ABDULAHADHONNING KUNDALIKLARI, YOZISHMALARI VA ISLOHOTCHILIK FAOLIYATI

SULTONOVA KUMUSH

Buxoro davlat universiteti "Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari" yonalishi 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Mang'itlar sulolasining vakili Amir Abdulahadxonning Buxoro amirligiga yuritgan ichki va tashqi siyosati, mamlakatda osoyishtalikni ta'minlash, shuningdek Rossiya imperiyasi bilan tuzgan shartnoma haqida.

**Kalit so'zlar:** Buxoro amirligi, general-gubernator; savdo; tashqi siyosat; shartnoma; imperiya; mustamlaka.

Buxoro amirligi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida monarxiya tartiblariga asoslangan, Rossiyaga qaram bo'lgan yarim mustamlaka davlat edi. 1868 va 1873 yilgi Rossiya va Buxoro amirligi o'rtasida imzolangan noteng shartnomalar imperiya manfaatlariga xizmat qildi. 1885 yilda Turkiston general-gubernatorining talabiga ko'ra, Buxoroda Rossiyaning Siësiy agentligi tashkil etildi. Rossiya imperiyasi bilan imzolangan noteng shartnomalar tufayli Buxoro amirlari ichki siësatda mustaqil bo'lsa-da, xalqaro savdo va tashqi aloqalarni Rossiya vositasida amalga oshirishga majbur edi. Amir Muzaffarxon davridaëq boshlangan yarim mustamlaka sharoitda hukmronlik qilish uning vafotidan so'ng farzandi Sayyid Abdulahadxon (1885-1910)122ga nasib etdi.

Abdulahadxon Amir Muzaffarxon (1860-1885)ning 14 o'g'lidan to'rtinchisi bo'lib, 1857 yil 16 martda Karmana shahrida tug'ilgan. Dastlab amir to'ng'ich o'g'li Abdumalik To'ra (1848-1909)ni taxt vorisi etib tayinlaydi. Ammo rus istilosidavrida (1868) ota-o'g'il o'rtasida ixtilolar kelib chiqishi natijasida Amir Muzaffarxon uni toj-taxt vorisi huquqidan butunlay mahrum etadi. Ayni paytda Chorjo'y begi vazifasida bo'lib turgan o'g'li Nuriddinni toj-taxt vorisi etib tayinlamoqchi bo'lganda, to'satdan vafot etadi. So'ngra o'g'li Abdulfattoh (1856/57-1869)ni taxt vorisi etib tayinlab, 1869 yilda rus imperatori Aleksandr II huzuriga yuborib, taxt vorisligiga imperator roziligini olishga erishadi. Ammo to'satdan Abdulfattoh ham vafot etadi. Shundan so'ng Amir Muzaffarxon Abdulahadxonni taxt vorisi etib tayinlaydi. Amir Muzaffarxon Abdulahadxonni 1883 yilda Peterburgga rus imperatori Aleksandr III (1881-1894) huzuriga Buxoro taxtiga bo'lajak vorisligini tasdiqlatish uchun yuboradi. Unga Hisor hokimi Ostonaqul qo'shbegi (1860-1923), Mirza Salimbek (1848/50-1930) parvonachi va boshqalar hamkorlik qilishadi. Abdulahadxon safarining yana bir muhim jihati shundaki, u —Jadidchilik harakatining otasi Ismoilbek Gaspirinskiy bilan uchrashadi va —Tarjimonl gazetasiga obuna bo'ladi. 1883 yilgi Peterburg saëhati Abdulahadxon qarashlarida tub burilish yasab, unda islohotchilik kayfiyati paydo bo'lgan edi. U Buxoroning jahon taraqqiëtidan ancha ortda qolganini anglab, hamma sohalarda jiddiy o'zgarishlar qilish zarurligini tushunib yetadi. 1885 yil 31 oktyabrda amir Muzaffarxon 62 ëshida vafot etgach, Karmana hokimi bo'lib turgan 28 yoshshli Abdulahadxon 1885 yil 4 noyabrda valiahd sifatida amirlik taxtiga o'tiradi.

Amir Abdulahadxonga bu davrda Buxorodan uzoqda yashaëtan akasi – Buxoro taxti da'vogari Abdumalik To'ra xavf solib turardi126. Xuddi shu davrda Chorjo'y begi, Muzaffarning yanabir o'g'li Siddiqxon127 ham taxtga da'vo qilaëtan edi. Otasining o'limidan xabarsiz Buxoroga yetib kelgan Siddiqxon qo'shbegi tomonidan uy qamog'iga olinadi va 35 yil (1885-1920) davomida siësiy haëtdan chetlashtiriladi. U 1920 yilda Buxoro amirligi tugatilgach, Afg'onistonga jo'natilgan. Siddiqxon Hashmat taxallusi bilan she'rlar ëzib, xalq orasida mashhur bo'lgan. Amir Abdulahadxon amirlik taxtiga o'tirgan vaqtda mamlakatda amaldorlarning sudxo'rliqi, mahalliy hokimlarning xalqqa o'tkazaëtan zulmi

beqiès darajada ortib ketgan edi. Hatto, ayrim bek va hokimlar markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortib, mustaqil bo'lish uchun harakatlanayotgan edi<sup>129</sup>. Mamlakat ijtimoiy haètida ham bir qancha qusurlar mavjud bo'lib, amaldorlar o'rtasida poraxo'rlik, ta'magirlik avj olgan, jamiyatda gièhvandlik, bachchabozlik, qimorbozlik keng tarqalgan edi. Bu illatlarga barham berish maqsadida Amir Abdulahadxon sud-huquq tizimini tartibga solishga kirishadi hamda ta'magirlik va poraxo'rlik qilgan amaldorlarni lavozimidan chetlashtiradi. Barcha viloyat qozilari va tuman oqsoqollarini ishdan olib, o'rniga yangilarini tayinlaydi<sup>130</sup>. Shuningdek, mufti askar lavozimidagi Badriddin maxdumni rais mansabiga, Orifjon maxdumni esa, mufti askar mansabiga o'tkazadi. Nasha chekish, ko'knor ichish, bachchabozlik, qul savdosi, qatl qilish va tan jazolari amir buyrug'i bilan rasman ta'qiqlanadi. 1886 yilda amirlikdagi zindonlarning bir qismini èpishga buyruq beradi. Buxoro shahridagi kanaxona ko'mib tashlanadi.

Amir Abdulahadxon Markaziy Osiyo hududida temir yo'l qurilishiga xayrixoh bo'lib, uning ruxsati bilan 1888 yilda Rossiya harbiy ishlar vazirligi tomonidan Buxoro-Samarqand temir yo'li quriladi. Kaspiyorti temir yo'l tarmog'ining Buxorogacha yetib kelishi pochta, telegraf va telefon xizmatlarining joriy etilishini tezlashtirdi. Mamlakatga rus kapitali kirib kela boshladi. Amir o'z hisobidan Yangi Buxoro (hozirgi Kogon)dan Eski Buxorogacha 12 km.li temir yo'l qurishga qaror qildi. Uning moliyaviy ko'magi bilan Amudarèdan o'tuvchi temir yo'l ko'prigi loyihalashtirilib, 1898 yilning 17 oktyabridan 1901 yilning 27 mayigacha 750 metrlik ko'priq qurildi. Ko'priq qurilishiga 3468000 rubl miqdorda sarflangan pul amir tomonidan berilgan bo'lsa-da, uning tepasidagi lavhda - Bu ko'priq Nikolay II (1868-1918) hazratlari tomonidan, Amir Abdulahad ishtirokida qurildi, deb èzib qo'yilgan.

Amir Abdulahadxon hukmronligi davrida bir necha bor Moskva va Sankt-Peterburgga rasmiy tashrif bilan borgan hamda muntazam safarlar davomida rus madaniyati va u orqali Yevropa sivilizatsiyasi yutuqlari bilan tanishgan. Uning Rossiyaga navbatdagi safari 1892 yil dekabrda boshlangan bo'lib, bunda o'g'li Mir Sayyid Olimxonni Peterburgdagi harbiy oliy maktabga o'qishga joylashtirish maqsadida borgan. Peterburg safariga ketaètganda mamlakatni boshqarib turishni Mulla Mir Badriddin qozikalon, Tursunxo'ja Sadr hamda Mulla Jonmirzabiy Parvonachidan iborat 3 kishilik Kengashga topshiradi.

Amir Abdulahadxon Peterburgga safari davomida Asxabod (Ashxabod), Boku, Tiflis (Tbilisi) kabi shaharlarda ham bo'lib, u yerdagi ijobiy o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatadi. Tbilisi shahrida 800 talaba tahsil olaètgan gimnaziya faoliyati bilan tanishadi. Gimnaziya o'quvchilari mehmonlarga o'zlarining harbiy mashqlari, kitobdan olgan bilimlari, musiqa sohasidagi mahoratlarini namoyish etganlar.

Peterburgda esa imperator tomonidan aholining xavfsizligi yo'lida tashkil qilingan o't o'chirish komandasining ish tartibi namoyish etiladi<sup>137</sup>. Shuningdek, davlat hisobidan faoliyat ko'rsatuvchi har ikki jinsdagi ko'r va kar bolalar uchun ta'sis etilgan maktablarni borib ko'rganlar. Maktabda bolalar o'qish, yozish va imo-ishoralar yordamida so'zlashishga o'rgatilgan. U bir nechta bo'limlardan iborat bo'lib, yigitlar va qizlar alohida bo'limlarda tahsil olganlar. Ahvoli nochor ota-onalarning farzandlari yoki butkul ota-onasiz yetimlarga bu yerda, har birining iqtidoriga qarab, turli hunarlar o'rgatilgan, xususan, qizlar kashta tikish, turli taomlar tayèrlash va o'zlariga mos ishlarni o'rgansa, o'g'il bolalar duradgorlik, tikuvchilik, etikdo'zlik va boshqa shu kabi hunarlarni egallaganlar. Mazkur ta'lim tizimi nogiron yigit-qizlarga maktabni bitirib chiqqach, biror hunar bilan mashg'ul bo'lib, chetdan yordamga muhtoj bo'lmay, o'z mehnati evaziga turmush kechirish imkonini bergan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Abdulahadxon 25 yillik hukmronligi davrida Buxoro amirligida qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq va sanoatni rivojlantirishga; qishloq xo'jaligidagi mavjud kamchiliklar, shuningdek, soliqlarni yig'ish borasida vujudga kelgan muammolar natijasida mamlakatda sodir bo'lib turgan norozilik harakatlarining sabablarini o'rganib,

xalqning turmush darjasini yaxshilashga e'tibor qaratdi. Shuningdek, ikki mazhab o'rtasidagi diniy nizolarni to'xtatib, Buxoro shahridagi g'alaenlarni bartaraf etdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 249 б
2. Муҳаммаджанов Р. Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.-Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси, 1957. – 224 б
3. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, 2001. – 386 б.
4. Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата. – М.: Вост. литер., 1958. – 131 с.
5. История Узбекистана (XVI – первая половина XIX века) / А.А.Асқаров, Б.А.Аҳмедов, С.К.Камалов ва бошқ.; Отв.ред. Р.Г.Мукминова. – Ташкент: Фан, 1993. – 476 с.
6. Маннонов Б. Ўзбек дипломатияси тарихи. – Тошкент: ЖИДУ, 2003. – 375 б.
7. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. – 182 с.
8. Муқимов З.Ю. Ўзбекистон ҳуқуқининг тарихий манбалари. – Самарқанд: “Зарафшон”, 1995. – 126 б. 3.55. Муқимов З.Ю. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Самарқанд: “Зарафшон”, 1998. – 312 б.
9. Муқимов З.Ю. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: Адолат, 2004. – 280 б.